

AREAL FOLKLORSHUNOSLIK VA OXUNJON SAFAROV TADQIQOTLARI

*O'rinova Maftuna No'mon qizi,**OXU o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada areal folklorshunoslik qonuniyatlari haqida soʻz yuritilib, bu borada tadqiqot yaratgan olimlar faoliyati tahlil qilingan. Jumladan, Buxoro folklori namunalari toʻplash, kontekstual tahlil qilish hamda nashr etish boʻyicha samarali ishlarni amalga oshirgan folklorshunos olim Oxunjon Safarovning xizmatlari eʼtirof etilgan. Olimning areal tadqiqotlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Areal folklorshunoslik, kartografik metod, savolnoma, tadqiqot, lokal, manba, material.

Аннотация: В статье рассматриваются закономерности ареального фольклора, анализируется деятельность ученых, проводивших исследования в этой области. В частности, были отмечены заслуги фольклориста Охунжона Сафарова, который провел плодотворную работу по сбору, контекстному анализу и публикации образцов бухарского фольклора. Обсуждаются полевые исследования ученого.

Ключевые слова: Ареальный фольклор, картографический метод, анкетирование, исследование, местный, источник, материал.

Annotation: This article discusses the laws of areal folklore studies and analyzes the activities of scientists who have conducted research in this area. In particular, the merits of the folklorist Okhunjon Safarov, who carried out effective work on collecting, contextualizing and publishing samples of Bukhara folklore, are recognized. The scientist's areal research is discussed.

Key words: Areal folklore, cartographic method, questionnaire, research, local, source, material.

Ilm-fan shiddat bilan rivojlanar ekan, hozirgi oʻzbek folklorshunosligida yangi ilmiy yoʻnalishlar va konsepsiyalarning yuzaga kelishi zaruratga aylanmoqda. Folkloristik tadqiqotlarda u yoki bu yoʻnalishning kirib kelishi yoki kuchayib ketishi jamiyatning xalq ijodiga boʻlgan munosabati bilan bogʻliqdir. Bugungi kunda folklor materiallarini areal jihatdan oʻrganib, oʻziga xos lokal xususiyatlarini aniqlash, tarqalish chegaralarini belgilash hamda uni umumfolklor kontekstida tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Areal termini lotin tilida “maydon”, “sath”, “makon” maʼnolarini anglatib, biror fakt yoki faktlar yigʻindisining territorial qoʻllanishiga aytiladi. Bu terminga Oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha taʼrif berilgan: “Areal(lot. area, maydon, makon) 1. Oʻsimlik yoki hayvonning biror turi, turkumi yoki oilasi tarqalgan hudud. 2. Til hodisalari – fonetik, leksik va b. hodisalar tarqalgan hudud, lingvistik areal”[1,35]. Koʻrinadiki, areal istilohi hudud bilan bogʻliq tushunchani ifodalaydi.

Zamonaviy ilm-fanda areal lingvistika takomillashib bormoqda. Tilshunoslikning lingvistik areallarni oʻrganish bilan shugʻullanuvchi sohasi yoki lingvistik areallarni oʻrganishga alohida eʼtibor beruvchi yoʻnalishi bugungi kunda oʻz metodlariga ham ega. Soʻnggi yillarda areal metodlar tilshunoslik, etnografiya, antropologiya, arxeologiya kabi fan sohaslarining taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshmoqda. Folklorida ham ushbu termin, garchi areallar umumiy nazariyasining asos tushunchasini ifodalasa-da, aniqlashtirishni talab etadi. Folklor areali deganda biz konkret folklor fakti yoki faktlari yigʻindisining badiiy-estetik, tarixiy-etnografik, dialektal va sotsial parametrlar bilan hisoblashgan holda chegaralangan hududiy koʻlam hosil qilishini tushunamiz. Demak, hudud jihatdan chegaralanganlik areal folklorshunoslik tadqiqotlari obyektining asosiy belgisidir. Oʻzbek folklorini areal tadqiq qilishning baʼzi masalalari xususida

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

o'tgan asrning 80-yillarida taklif-mulohazalar paydo bo'ldi [2,44]. S.Shodiyevaning ilmiy maqolasida areal tadqiq metodlari folklorshunoslik sohasiga tatbiq etilsa, ko'plab chigal masalalarning yechimiga sabab bo'lishi haqida fikr yuritilgan. Bunda muallif ma'lum hududdan to'plangan folklor materiallari asosida kartalashtirish metodini taklif qildi. Aytish mumkinki, folklor namunalari makon jihatdan to'plab o'rganishga intilish folklorshunoslikka ham areal metodlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan, kartografik metod alohida ahamiyatga ega. "Bu metod xalqning etnik tabiatini belgilovchi an'anaviy moddiy madaniyat, urf-odat va an'analari, turli-tuman sheva xususiyatlarini aks ettiruvchi katta qamrovdagi faktik materiallarni to'plab sistemalashtirish hamda etnolingvistik jarayonlar bilan bog'liq o'ziga xos qonuniyatlarni ochib berish maqsadida qo'llanadi". Etnofolkloriy hodisaning tarqalish doirasi va qayd qilinish darajasini kartografiya usulida aniqlash tajribasi ilk bor Fridrix Ratsel va Vilgelm Pesser tomonidan qo'llangan. Folklorshunoslikda bu metodning yuzaga kelishiga esa yirik fransuz folklorshunos olimi Arnold Van Gennepning tadqiqotlari asos bo'lgan. O'zbek folklorshunosligida mazkur metod ilk bor G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif tadqiqotlarida uchraydi. Jumladan, H.Zarifning 1934-yilda chop ettirilgan "Lug'at ham termin to'plaguvchilarga qo'llanma"sida "Programma" fasli mavjud bo'lib, unda turli ma'lumotlarni to'plash uchun savolnoma-anketalar ilova qilingan. "Mazkur savolnoma anketalar o'simliklar, hayvonlar, meteorologiya, astronomiya, xalq turar joylari, uy va uy jihozlari, ovqat va ichimliklar, kiyim-kechaklar, bezaklar, naqliyot vositalari, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, sabzavotchilik, arichilik, tovuqchilik, ovchilik, ko'katchilik, sabzavotchilik, arichilik, tovuqchilik, ovchilik, gulchilik, hunarmandchilik san'ati, savdo-sotiq, tibbiyot va xalq tabobati, urug'-qabila, oila va qarindoshlik, to'y, o'lim, din, bayramlar, o'yinlar, cholg'u, kuy va raqs, og'zaki adabiyotga oid materiallarni to'plash maqsadida keltirilgan" [3,98]. Demak, o'zbek folklorshunosligida kartografik metod asosida material to'plash an'anasi birinchi marta H.Zarifov tomonidan amalga oshirilgan. Kartografik metodning asosiy maqsadi folklor asarlari yoki uning muayyan janrini areologik jihatdan tadqiq qilishdan iborat. Bizningcha, areal folklorshunoslikning asosini ham kartografik metod tashkil qiladi. Xalq og'zaki ijodini areal tadqiq etish ma'lum hududdagi lokal xususiyatlarni to'liq o'rganish hamda ularni qiyosiy aspektda tahlil qilish imkonini beradi. O'zbek folklorshunosligida kartografik metod asosida bevosita yaratilgan ilmiy tadqiqot mavjud bo'lmasada, bu usulning ayrim qirralari folkloristik izlanishlarda qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, bolalar folklorshunosligi nuqtayi nazaridan qaraganda, Namangan, Farg'ona, Xorazm, Surxandaryo hududining kichkintoylarga xos folklori alohida tadqiq qilingan.

Buxoro vohasi ham o'ziga xos va betakror folklor namunalari bilan nomoddiy madaniy meros xazinasini boyitib kelmoqda. Ularni tahlil qilish va to'plash Buxoro folklorshunos olimlari oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu borada butun umrini vatan va millat, fan taraqqiyotiga bag'ishlagan taniqli olim Oxunjon Safarovni alohida e'tirof etmoq joiz. Uning Buxoro folklorini regional to'plash va o'rganishga bel bog'lagani, avvalo, ona yurtiga mehr- muhabbatini hamda ilm-fanga bo'lgan rag'batini ko'rsatadi. Folklorshunos olim zimmasiga mas'uliyatli yukni olar ekan, bu yo'lda o'zidan oldingi qator ishlar bilan chuqur tanishadi. Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Avfiy Buxoriyning "Javomi-ul hikoyot", Abdulqodir Savdoning "Muzhika" asarlari, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Abdurauf Fitrat, H.Zarif, G'.Yunusov, T.Mirzayev qarashlarini puxta o'zlashtiradi. Natijada olim Buxoro vohasi folklorini to'plashda o'z yo'li va uslubiga ega bo'ladi. Buxoro xalq ijodiyoti xilma-xil tur va janrlarda namoyon bo'lib, rivojlanganligi haqida O.Safarov shunday xulosaga keladi: "Bunda so'z magiyasi asosidagi kinnalardan tortib asotiru afsonalar, rivoyatu latifalargacha, eng ommaviy kichik janrlar – maqolu topishmoqlargacha,

eposning gultoji dostonu ertaklargacha mavjud bo'lganligi yaqqol tasdiqlaydi" [4,63]. Mazkur fikr Buxoro folklorining nihoyatda qadimiyligi va rang-barangligini asoslaydi.

Yigirmanchi asrning yetmishinchi yillariga kelib Buxoro folklorining regional xususiyatlarini o'rganish va uning o'zbek folklori kontekstidagi mavqeyini oydinlashtirish ishlariga Buxoro davlat universiteti professori Oxunjon Safarov boshchilik qildi. Har yili O'zbek filologiyasi talabalari bilan vohaning turli hududlariga ekspeditsiyalar uyushtirildi. Mavjud manbalar asosida O.Safarovning areal tadqiqotlarini ikkiga ajratish mumkin:

1. Bolalar folkloriga oid areal tadqiqotlar .
2. Kattalar folkloriga oid areal tadqiqotlar.

Adabiyotlar:

1. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
2. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. Академические исследования в современной науке, 2(24), 148-152.
3. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 8-15.
4. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O 'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 16-21.
5. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 51-56.
6. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 57-62.
7. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 1-7.
8. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 14-20.
9. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 8-13.
10. Akbarovna, I. S., & Lola, I. (2025). IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 7(75), 201-204.
11. Икромова, С. А., & Джумаева, Ф. Б. (2025). ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 256-262.
12. Ikromova, S. A. (2025). ART TERAPIYANING RUHIY KASALLIKLARNI DAVOLASHDAGI O 'RNI VA SAMARADORLIGI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 154-157.
13. Akbarovna, I. S. (2024). STRESS, DEPRESSIYA VA BOSHQA RUHIY HOLATLARNING PSIXOLOGIYADAGI O'RNI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 1(3), 7-13.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

14. Akbarovna, I. S. (2023). GENERAL SIGNS OF A TEENAGER'S ORIENTATION TOWARD DESTRUCTIVE BEHAVIOR. *International scientific review*, (XCI), 19-20.
15. Akbarovna, I. S. (2025). YOSH DAVRLARIDA SHAXSIY O'ZIGA XOSLIKNING SHAKLLANISHI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 316-321.
16. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 26-31.
17. Икромова, С. А. (2024). ИНTELLEKT VA IQBOL: KOGNITIV PSIXOLOGIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 99-104.
18. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 20-25.
19. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИЗИСЫ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 29-35.
20. Икромова, С. А. (2024). ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПАМЯТЬ ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 59-65.